Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	



BANKLARDA MOLİYAVIY XAVFSIZLIK KATEGORIYASINING EVOLYUSIYASI

Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li

Tashkent International University mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari faoliyatida moliyaviy xavfsizlikka bo'lgan zaruratning vujudga kelishi va uning evolyusion shakllanishiga nisbatan ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Tadqiqotda jahon iqtisodiyotidagi moliyaviy inqirozlarning banklar moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan zaruratni keltirib chiqarganligi va uning o'ziga xos jihatlari borasida ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilgan. Banklar moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ayrim olim va tadqiqotchilarning ilmiy asarlari o'rganilgan va ular tizimlashtirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, moliyaviy xavfsizlik, rentabellik, kapital yetarliligi, likvidlik, leverej koeffitsiyenti.

Abstract: The article formulates scientific conclusions regarding the emergence of the need for financial security in the activities of commercial banks and its evolutionary development. The study presents scientific approaches to understanding the specific aspects of this need, triggered by financial crises in the global economy. The research also reviews and systematizes the scientific works of various scholars and researchers focused on ensuring financial security in the banking sector.

Key words: commercial banks, financial security, profitability, capital adequacy, liquidity, leverage ratio.

Аннотация: В статье сформулированы научные выводы относительно необходимости обеспечения финансовой безопасности в деятельности коммерческих банков и её эволюционного формирования. В исследовании разработаны научные подходы к специфике формирования данной необходимости под воздействием финансовых кризисов в мировой экономике. Изучены и систематизированы научные труды отдельных ученых и исследователей, направленные на обеспечение финансовой безопасности банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, финансовая безопасность, рентабельность, достаточность капитала, ликвидность, коэффициент левереджа.

KIRISH

Moliyaviy institutlarning moliyaviy barqarorligi yuzasidan ko'plab muhokamalar yuzaga kelayotgan bo'lsada, ulardagi qarashlarda umumiylik mavjudligini ko'rish mumkin. Unda moliyaviy faoliyatning tashqi va ichki ta'sirlarga nisbatan munosib javob qaytara olishi va turli inqirozli holatlarga duch kelmasligi bilan ifodalanishi bilan izohlanadi. Moliyaviy institutlari qatoriga ko'plab sub'yektlarni kiritish mumkin bo'ladi. Jumladan, banklar, sug'urta kompaniyalari, investision kompaniyalar va davlatning boshqa moliya institutlari shular sirasiga kiritiladi.

Banklarda moliyaviy xavfsizlik masalasining vujudga kelishi uning barqaror moliyaviy faoliyatni amalga oshira olishi bilan izohlanadi. Banklarda moliyaviy tahdidlarga qarshi tura olishi iqtisodiy jarayonlardagi turli inqirozli holatlarning vujudga kelishi orqali ifodalanib keladi. Jahon iqtisodiyoti tajribasida yuz bergan ko'plab iqtisodiy inqirozlar banklarning oldiga ko'plab va turli rakurslardan aks etadigan savollarni kun tartibiga chiqardi.

Ko'plab olimlarning tadqiqotlari va ilmiy xulosalarida moliya institutlari, xususan banklarning moliyaviy xavfsizligi uchta rakursdan ajratgan holda shakllantirilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Birinchidan, standart iqtisodiy jarayonlarning vujudga kelishi jarayonida bankning standart moliyaviy barqaror faoliyati borasidagi ilmiy xulosalar bo'lib hisoblanadi. Ikkinchidan, iqtisodiy inqirozlarning vujudga kelishi fonida banklarning turli iqtisodiy va siyosiy tahdidlarga nisbatan faoliyatini saqlab qolishi bilan izohlanadi, desak to'g'ri bo'ladi. Uchinchidan, inqirozli davrdan keyingi holatlarda markaziy regulyatorning yondashuvlarining xususiyatlari kabi jihatlarni keltirish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Banklarning moliyaviy xavfsizligiga nisbatan yondashuvlar o'tgan asrning ikkinchi yarmidan so'ng rivojlana boshlagan. Bunda asosiy sabablardan biri iqtisodiy inqirozlarning keng tus olishi bilan bog'liq ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Jumladan, 1930-yilda Buyuk depressiya inqirozining vujudga kelishi bank tizimining barqarorligiga nisbatan yondashuvlarning o'zgarishiga olib keldi. Natijada, bank tizimining barqarorligiga nisbatan ishonchni shubha ostida qolishiga olib keldi.



E.Vayt tomonidan e'lon qilingan maqolada 1930-yildagi bank inqirozining o'ziga xos xususiyatlari borasida ilmiy xulosalar asoslashga harakat qilingan. U tadqiqotlari asosida bank inqirozining mazkur davrida institutsional zaiflik va jiddiy nazorat mexanizmining mavjud emasligi bilan ko'rsatib beradi [1]. Uning fikricha, bank inqirozining asosiy sabablari sifatida tarmoqlararo bank diversifikatsiyasining McFadden Act kabi qonunlar bilan to'sib qo'yilganligi, Markaziy bank (Federal Reserve) o'zining faoliyatida bank tizimini nazorat qilish funksiyasini to'laqonli amalga oshirmaganligi, inflyasiya va deflyasiyani boshqarishdagi xatoliklar likvidlik bilan bog'liq muammolarni kengaytirganligi kabilarni keltirib o'tadi. E.Vayt tomonidan bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda likvidlik, diversifikatsiya, markazlashgan nazorat kabi konsepsiyalarga e'tibor berishni taklif etadi.

E.Vikker tomonidan olib borilgan tadqiqotda ham 1930-yildagi bank inqirozi bilan bog'liq holatlar tahlil qilingan [2]. U tomonidan ham bank inqiroziga turli "vahimali yoki mish-mishli holatlar" emas, balki bank muammolarining majmuidan iborat ekanligini qayd etib o'tadi. Monetar nomarkazlashuvning zaifligi mamlakatdagi milliy bank inqirozining oldini olmaganligi, statistik ma'lumotlarning kamligi inqirozni bag'olashda Markaziy bank kech qolganligini kabilarni ko'rsatib o'tadi. Uning fikricha, banklararo hamkorlik, o'zaro ma'lumot almashinuvi va markazlashgan monetar siyosat bank inqirozining oldini olishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tadi.

M.Reyd tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda 1973 – 1975-yillarda vujudga kelgan ikkilamchi banklar xususiyatini aks ettiradigan moliya institutlarining ayrim sub'yektlari faoliyatini tahlil qiladi [3]. U tomonidan ikkilamchi banklar sifatida depozit qabul qilmaydigan moliya institutlarining inqiroz xavflari shaklida likvidlik muammosi, ekspansion faoliyatning nazorat qilinmasligi, aktivlar portfelining zaifligi kabilarni keltirib o'tadi. Uning fikricha, ikkilamchi bank institutlarida yuzaga keladigan inqirozli holatlar bank tizimi moliyaviy xavfsizligiga o'zining ta'sirini o'tkazar ekan.

L.Liven o'zining maqolasida bank inqirozlarining sabablari, shakllari, ta'sir doirasi va ularni bartaraf etishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan ustuvorliklar to'g'risida o'zining ilmiy xulosalarini shakllantirishga e'tibor qaratadi. Bank inqirozlarini kelish chiqish sabablari qatoriga quyidagilar kirishi mumkinligini qayd etib o'tadi: kredit pufaklari va aktivlar narxining asossiz o'sishi, kapital yetarililigi va likvidlik muammosi, huquqiy-me'yoriy asoslar va nazoratning zaifligi, banklar va davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning makroiqtisodiy qoidalarga asoslanmagan holda amalga oshirilishi kabilarni keltirib o'tadi. Shu nuqtai nazardan, banklarda inqirozli holatlarning oldini olish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda banklar qayta kapitalizatsiyasi, aktivlarni boshqarishda muammoli holatlarni bartaraf etish yo'llari, monetar tashkilot tomonidan likvidlikni tartibga solish va depozitlarni kafolatlashga qaratilgan ishlarni amalga oishirish muhimligi borasida takliflarni ilgari suradi.

V.Jekson o'zining ilmiy maqolasida 1970 – 1980-yillarda AQSHda yuz bergan moliyaviy inqirozlar borasida o'zining ilmiy yondashuvlarini asoslab berishga harakat qiladi [4]. U tomonidan inqiroz sabablari sifatida ko'chmas mulk bozorida kredit pufaklari, foiz stavkalarining ta'minlanmaganligi, kredit siyosatining nazorati yetarli darajada tashkil etilmaganligi bilan izohlanishiga e'tibor qaratadi. Shu boisdan, davlat tomonidan Federal Deposit Insurance Corporation (FDIC) va Federal Savings and Loan Insurance Corporation (FSLIC) dasturlari (jamg'armalari) imkoniyatlaridan foydalanib banklarni himoyalash ishlari amalga oshirilganligi, 1989-yilda FIRREA (Financial Institutions Reform, Recovery, and Enforcement Act) qabul qilinganligi alohida ta'kidlab o'tiladi.

J.Rochet amalga oshirgan tadqiqot natijasida e'lon qilingan maqolada banklarning inqirozga uchrashi va uning moliyaviy xavfsizlikka bo'lgan zaruratini keltirib chiqarishi tahlil qilingan [5]. U tomonidan bank inqirozlarining takrorlanishi va monetar tashkilotlar nega buni nazorat qila olmasligi kabi omillarni aniqlaydi va baholaydi. Uning fikricha, banklar inqirozi iqtisodiy omillar bilangina yuzaga kelmasligi, balki siyosiy kontekstda manfaatlar to'qnashuvi ham ta'sir etishi mumkinligini qayd etib o'tadi. Shuningdek, bank inqirozining doimiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirib o'tadi: monetar regulyatorning tijorat banklari ta'siriga tushishi, populistik ahamiyatdagi moliyaviy siyosatni amalga oshirish va moliyaviy xatarlarni makroiqtisodiy miqyosda davlat zimmasiga yuklash tendensiyasining mavjudligi kabilarni bank inqiroziga olib kelishini ta'kidlab o'tadi.

V.Ivashina va D.Sharfsteyn biraglikda olib borgan tadqiqotida 2008-yilda vujudga kelgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlari fonida kredit siyosati va qarz berish tendensiyasi pasayganligini tahlil qilib o'tishadi [6]. Ularning xulosalarida yangidan kredit berish darajasi 47 foizga pasaygan, yangi mijozlarga kredit berish amaliyotlari to'xtatilganligi ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, kapital yetarililigi va likvidlik muammosini alohida qayd etib ko'rsatiladi. Biroq, likvidlik muammosi jiddiyoq tus olganligini va natijada kredit berish amaliyoti qisqarganligini ko'rsatib o'tishadi.

Fikrimizcha, banklarning inqirozli holatlarga tushib qolishida iqtisodiy omillar bilan birga, ijtimoiy-siyosiy omillarni ham inobatga olish zarur ekan. Shu boisdan, monetar tashkilot tomonidan ijtimoiy ko'rsatkichlarni ham inobatga olgan holda amalga oshirish muhim hisoblanadi. Bu borada, aholining moliyaviy savodxonligi, kredit turlarining milliy qadriyatlarga emas, balki iqtisodiy mezonlar asosida tartibga solinishi kabi jihatlar shular jumlasiga kiradi.




TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

1930-yildan keyin banklar soni inqirozli vaziyatning vujudga kelishi oqibatida qisqarganligini kuzatish mumkin. Bu esa, banklarning moliyaviy xavfsizligiga doir bo'lgan ko'rsatkichlar tizimining to'laqonli mavjud bo'lmaganligini ko'rish mumkin. Shu boisdan, inqirozli davrlar banklarning moliyaviy xavfsizligiga bo'lgan yondashuvning shakllanishiga olib keldi (1-rasmga qarang).

Umuman olganda, banklarning inqirozga uchrashi ma'lum ma'noda moliyaviy xavfsizlikka bo'lgan zaruratini yanada dolzarb ahamiyatga ega bo'lishini yuzaga chiqarmoqda. 1973 – 1975-yillarda yuzaga kelgan global bank inqirozi aynan ushbu jihatlarni o'zida aks ettirib beradi (1-rasm).



1-rasm. 1930-yildagi Buyuk depressiyada bank inqirozi tendensiyasi [7].

2008 – 2009-yillarda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida banklarning moliyaviy barqarorligiga bo'lgan tahdidlarning kuchayishi vujudga kelganligini ko'rish mumkin. Bunda banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash borasidagi yondauvlari muhim ekanligi va monetar regulyatorning ta'siri bilan birga, hukumatning amalga oshiradigan siyosati ham o'zining ta'siriga ega ekanligini qayd etish lozim.

Biz yuqorida ilmiy xulosalari keltirilgan tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan yondashuvlar asosida quyidagi xulosalarimizni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:


Birinchidan, banklar kreditlarining pufak kabi shishib ketishi va moliyaviy ilyuziyaning oshishi oqibatida yuqori riskli vaziyatlarning kuchayishi nazoratning barqaror emasligini ifodalashi bilan birga, banklar faoliyatida inqirozli holatlarni rivojlantirar ekan.

Ikkinchidan, moliyaviy regulyatorlarning instrumntlarida xavflarni boshqarishdan ko'ra ko'proq, foydani maksimallashtirishga qaratilgan bank faoliyatini rag'batlantirishga moyil bo'lganligini ko'rish mumkin.

Uchinchidan, monetar regulyatorning populistik tUSDagi moliyaviy siyosatga berilib ketishi va tijorat banklarining "erkaliklari"ga e'tibor qaratishi kabilar bankning moliyaviy xavfsizligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni o'zida markazlashtirib berishini qayd etish lozim.

To'rtinchidan, iqtisodiy inqirozlarning vujudga kelishi oqibatida moliyaviy zararlarni makroiqtisodiy nuqtai nazardan davlat byudjetining zimmasida bo'ladi degan tasavvurning turg'unlashib borishi kabi holatlar bankning moliyaviy xavfsizligiga o'zining ta'sirini ko'rsatadi ekan.

Beshinchidan, banklarning inqirozga uchrashi natijasida real sektorning qo'shimcha qiymat yarata olish imkoniyatining cheklanishi va milliy daromadning kamayishi kabi holatlarning shakllanishi banklarning moliyaviy xavfsizligiga bo'lgan zaruratni ifodalab beradi (2-rasm).



2-rasm. AQSH moliya sektori va yirik banklari jami foydasi (soliq to'languncha), mlrd. AQSH dollari.

Fikrimizcha, 2008-yilgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida yirik banklar kichikroq banklarga bo'linishi mumkin edi. Aynan vaziyatning fonida esa ularning yanada kattaroq va ta'sirchanroq moliyaviy subyektlarga aylanganligini ko'rish mumkin. Tadqiqotlarda qayd etib o'tilganidek, monetar regulyatorning tartibga solish mexanizmining yetarli darajada qat'iy emasligi va moliya sektorining siyosiy tizim bilan o'zaro bog'lanib ketganligi kabi holatlar ham bunga o'zining ta'sirini ko'rsatayotganligini kuzatish mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda tizimli tahdidlarni qisqartirish uchun yirik banklarning faoliyatiga nisbatan qat'iyroq va siyosiy ta'sirdan xoli nazorat mexanizmlari yaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda iqtisodiy omillarnigina inobatga olib o'zgarishlarni amalga oshirish inqirozli holatlar oldini olmasligi mumkin ekan. Bu esa, noiqtisodiy xususiyat kasb etadigan omillarni ham e'tiborga olgan holda banklar moliyaviy xavfsizligini ta'minlash ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Fikrimizcha, banklarning moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda ko'plab omillarni inobatga olinishi zarurligi qator xalqaro tadqiqotlarda o'zining aksini topgan. Ularni biz iqtisodiy va noiqtisodiy omillar tarzida guruhlariga ajratishimiz mumkin. Unda iqtisodiy omillarga moliyaviy mezon ko'rsatkichlarini xususiyatlab beradigan ma'lumotlar majmuini e'tiborga olsak, noiqtisodiy omillar sirasiga ijtimoiy-siyosiy ko'rsatkich mezonlarini qamrab olgan ma'lumotlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. White, E. N. (1984). A Reinterpretation of the Banking Crisis of 1930. The Journal of Economic History, 44(1), 119-138.
2. Wicker, E. (1980). A Reconsideration of the Causes of the Banking Panic of 1930. The Journal of Economic History, 40(3), 571-583.
3. Reid, M. (1982). The secondary banking crisis, 1973-75: its causes and course. Springer.



4. Jackson, W. (1989). Financial Crisis of the 1970s and 1980s: Causes, Developements, and Governments Responses. United States: Congress: Congressional Research Service (CRS).
5. Rochet, J. C. (2008). Why are there so many banking crises. The politics and policy of bank regulation, 33.
6. Ivashina, V., & Scharfstein, D. (2010). Bank lending during the financial crisis of 2008. Journal of Financial economics, 97(3), 319-338.
7. Banking Panics of 1930-31. <https://www.federalreservehistory.org/essays/banking-panics-1930-31>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
